



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

**Zulayxo Nazarova**

Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish  
hududiy markazi o'qituvchisi

## **“TARBIYA” FANI O‘QITUVCHILARINI KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH**

**Annotatsiya.** Ommoviy axborot vositalarida e'lon qilingan ma'lumotlarda 2012 yilning bahorida Rossiya Prezidenti Vladimir Putin Ta'lim vazirligiga matematika fani o'qituvchisi uchun professional standartni ishlab chiqishni buyurdi. O'qituvchilar uchun professional standartni ishlab chiqish uchun tuzilgan ishchi guruhga Moskva Ta'lim Markazining direktori E.A.Yamburg rahbarlik qildi. Ishga mualliflik uslublari bilan tanilgan, mamlakatning xizmat ko'rsatgan o'qituvchilari jalb qilingan.

**Kalit so'zlar:** standart, pedagog, masofali ta'lim, kasbiy standart

Hozirgi davrda mavjud va yangi ishlab chiqilgan ta'lim tarbiya metodlari, texnologiyalari klasifikatsiyasini oliy pedagogik ta'lim, amaliyotga joriy qilish dolzarb masala sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu borada tuman XTB qoshidagi metodik bo'limlarning faoliyati takomillashishga muhtoj. Taklif etilayotgan “Tarbiya” fani o'qituvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish modeli ushbu o'ta muhim

funksional bo‘lim faoliyatini muntazam rag‘batlantirib turishga yordam berishi uchun ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlarning faol shakllari tasnifidan foydalaniladi.

### Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlarning faol shakllari

№	Mashg‘ulot turlari	Qo‘llaniladigan texnologiyalar	O‘quvchilar faolligini oshirish samaradorligi %		
			Quyi	O‘rta	Yuqori
1	Keys metod	Muammoli ta‘lim texnologiyalari		20%	80%
3	Laboratoriya mashqlari	Ta‘limni rivojlantiruvchi texnologiyalar	12%	40%	48%
4	Seminar mashg‘ulotlar	Jamoa o‘qitish texnologiyasi	8%	44%	48%
5	Darslar-individual ravishda yoki guruhda yaratilgan ta‘lim mahsulotlarining namoyishlari (daydjestlar, mini loyihalar, mini tadqiqotlar, virtual sayohatlar va boshqalar)	Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyasi	2%	13%	85%
6	Amaliy konferensiyalar	Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyasi	18%	26%	56%
7	On Line darslar	Informasion-kommunikativ texnologiyalar		12%	88%
8	Rolli o‘yinlar	Guruhda o‘qitish texnologiyasi		16%	84%

Diagnostik blok kasbiy tayyorgarlik jarayonida “Tarbiya” fani o‘qituvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarning rivojlanganlik darajalarini, buning mezon va ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga oladi. Mezon sifatida to‘rtta tarkibiy qism: motivasion-qadriyatli, kognitiv, faoliyatli, kasbiy-ma’naviy fazilat komponentlarini o‘z ichiga oladi.

Kasbiy tayyorgarlik jarayonida “Tarbiya” fani o‘qituvchilarida ijtimoiy kompetensiyalar rivojlanganligining yuqorida qayd etilgan diagnostik mezon va ko‘rsatkichlarini inobatga olgan holda bosqichli yondashuv nazariyasi (M.Quronov, N.Saydahmedov)ga murojaat qilish orqali ijtimoiy kompetensiya rivojlanganligining darajalari past, o‘rta, yuqori deb belgilandi.

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan modeldan kutilayotgan natija sifatida bitiruvchi o‘quvchi - kasbiy vazifalarini hal qilishdagi zarur, malakalarga hamda muayyan ma’naviy axloqiy fazilatlarga ega boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi. Bunda natija-ikki xususiyati inobatga olinadi. Bir tomondan, o‘quvchi, ya’ni Uzluksiz ma’naviy tarbiya obyekti; ikkinchi tomondan, “Tarbiya” fani o‘qituvchisi, ya’ni Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasining subyekti. Bu “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanida o‘quvchilarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovasion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muayyan ma’naviy-axlokiy kompetensiyalarni rivojlantirishni va ayni vaqtda umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlari asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shakllantirishga o‘rgatish amalga oshirilishi talab qilinadi.

Natijaning namoyon bo‘lish ko‘rsatkichlari sifatida o‘quvchining ijtimoiy kompetensiyalarga doir standart masala va vaziyatlarda nostandart yechimlar topa olishlari, bunda zamonaviy aloqa vositalaridan, shu jumladan Internet manbalaridan foydalangan holda ijtimoiy axborot manbalari bilan ishlash; turli manbalardagi ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy ma’lumotlarning tanqidiy anglash, shu asosda o‘z xulosalari, baholari va munosabatlarini namoyon qilish; odatiy ijtimoiy tarbiyaviy vaziyatlarni aks ettiradigan kognitiv va amaliy vazifalarni hal qilish; zamonaviy ijtimoiy tarbiyaviy, ma’naviy ma’rifiy, mafkuraviy hodisa va vaziyatlarni tahlil qilish; amaliy

hayotdagi pedagogik vaziyatlarni tahlil qiladigan rolli o'yinlar va treninglarda ishtirok etish orqali odatdagi ijtimoiy rollarni o'zlashtirish; ma'lum vaziyatlarda pedagogik asoslangan, qonuniy va ijtimoiy ma'qullangan xulq-atvor va harakatlar algoritmini aniqlash uchun olingan bilimlardan foydalanish; o'z nuqtai nazarini asosli himoya qilish, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, Harakatlar strategiyasi, milliy g'oya, ma'naviy tahdidlar haqida munozaralarda, bahslarda, debatlarda qatnashish orqali "Jaholatga qarshi ma'rifat" formatida vayronkor g'oyalarga qarshi chiqish; ijodiy pedagogik esselar yozish va ularda ijtimoiy kompetensiyalar masalasini tahlil qilish; maktabda ijtimoiy tarbiyaviy loyihalarni yaratish va amalga oshirish shular jumlasidandir.

Kompetensiyaviy yondoshuv O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimida faol joriy qilinmoqda. O'tkazilgan qayd qiluvchi tadqiqotlarimiz natijalari oliy ta'lim muassasalarida «Tarbiya» fani o'qituvchilarining ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning bosqich va darajalari indikator va indekslarini ishlab chiqish zarurati mavjudligi aniqlandi. Zero ushbu texnologik vazifaning hal etmay turib, bu boradagi tashkiliy-metodik ishlarning samaradorligini kafolatli ta'minlab bo'lmaydi. Yuqoridagi tahlillardan, jumladan kompetensiyalarni darajalashtirishning amalda qo'llanilayotgan prinsiplaridan(M.M.Vahobov) kelib chiqib, boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning bosqich va darajalari ishlab chiqildi.

"Tarbiya" fani o'qituvchilarida kasbiy va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishning natijadorligi haqida ma'lumot beruvchi yana bir omil - bu ularni o'quvchilarda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" asosida shakllantirilayotgan ma'naviy axloqiy sifatlar dinamikasini kuzatish va baholab borishga o'rgatishdir.